



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA SHOSHILINCH TIBBIY YORDAM ILMIY MARKAZI**

Toshkent shahri

«8» 09 2026 yil

BUYRUQ № 284

**«2027-yil uchun tayanch doktorantura va
doktoranturaga tanlovga xujjat qabul qilish
hamda imtixon o'tkazish komissiya tarkibini tasdiqlash» to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22-maydagi "Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 304-son qarori ijrosini ta'minlash hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 11-avgustdagi 337-son buyrug'i "Ilmiy tashkilot va ta'lim muassasalariga O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan 2027-yil uchun stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va doktoranturaga qabul kvotalarini tasdiqlash" to'g'risidagi buyrug'iga asosan,

BUYURAMAN:

**I. Ilmiy ishlar va kadrlar tayyorlash bo'yicha direktor o'rinbosari,
t.f.d. Sh.K. Atadjanovga:**

Tegishli ixtisosliklar bo'yicha imtixon o'tkazish komissiyasining tarkibi **1-ilovaga** muvofiq tashkil qilinsin va tasdiqlansin;

ixtisosliklarga talabgorlarni tanlovga xujjatlarni qabul qilish va kirish imtihoni o'rniga **ilmiy tadqiqot ishi taqdimot** o'tkazish komissiyasining tarkibi **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Tayanch doktorantura (PhD)ga talabgorning ilmiy tadqiqot ishi taqdimotini baholash jadvali **3-ilovaga** muvofiq amalga oshirilsin;

joriy yil **15-sentabrdan 15-oktabrga qadar** stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va doktoranturaga talabgorlardan **Yagona elektron tizimi** (daraja.ilmiy.uz) orqali qabul jarayonlarini tashkil qilinsin;

talabgorlar tomonidan kelib tushgan hujjatlarni hamda ularning talab etilgan **xorijiy tillarni bilish darajasini** belgilovchi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikatlar haqqoniyligini **3 kun muddatda** (qabulning yakuniy sanasidan o'tmagan holda) ko'rib chiqishni ta'minlasin;

0001421.

talabgorlardan hujjatlarni qabul qilish va ularni o'qishga qabul qilish jarayonlarini Oliy ta'limdan keyingi ta'lim to'g'risida Nizom talablariga qat'iy amal qilgan holda amalga oshirilsin;

ilmiy kadrlar tayyorlashning ustuvor yo'nalishlariga oid ixtisosliklarga talabgorlarni qabul qilish kirish imtihoni o'rniga **ilmiy tadqiqot ishi taqdimoti 5-noyabr** kunida o'tkazilishi belgilansin;

II. Apellyatsiya komissiyasiga:

Kirish sinovlari natijalari bo'yicha talabgorlarning murojaatlarini ko'rib chiqish uchun apellyatsiya komissiyasi tarkibi **4-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

III. Raqamli texnologiyalar laboratoriyasi bo'limi boshlig'i M.A. Saidovga:

stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va doktoranturaga kirish uchun **ilmiy tadqiqot ishi taqdimoti** va suhbat jarayonlarini **video kuzatuv ostida (onlayn translyatsiya)** o'tkazish uchun zarur choralar ko'rilsin;

II. RSHTYOIM ilmiy kotibi t.f.n., A.A. Stopniskiyga:

Ilmiy tadqiqot ishi (taqdimot) tayyorlash va himoya qilishda Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) tomonidan qo'yiladigan standart talablar asosida tayyorlanishi **5-ilovaga** asosan amalga oshirilsin.

2.3. Kirish imtihonlari va suhbat natijalariga ko'ra, tayanch doktorantura va doktoranturaga o'qishga qabul qilish bo'yicha joriy yil **5-dekabrgacha bo'lgan muddatda buyruq rasmiylashtirilishi** va 5 kundan o'tmagan muddatda **Yagona elektron tizimiga yuklanishini ta'minlasin.**

2.4. **2026-yil 29-noyabrga qadar** 2027-yil uchun, tayanch doktorantura va doktoranturaga qabul jarayonlarining yakunlari bo'yicha hisobot kiritilsin.

III. Mazkur buyruq ijrosi nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Bosh direktor, professor

D.B. Tulyaganov

«Shoshilinch tibbiy yordam» — 14.00.40.

«Anesteziologiya va reanimatologiya» — 14.00.37.

- Tulyaganov D.B. — RSHTYOIM bosh direktori, t.f.d. (rais)
- Alimov D.A. — RSHTYOIM direktori, prof. (rais o‘rinbosari)
- Atadjanov Sh.K. — Ilmiy ishlar va kadrlar tayyorlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari, t.f.d. (rais o‘rinbosari)
- Stopniskiy A.A. — Ilmiy kotib, t.f.n.

Ilmiy tadqiqot ishi taqdimotini qabul qilish komissiyasining tarkibi:

1. Atadjanov Sh.K. – Ilmiy ishlar va kadrlar tayyorlash bo'yicha director o'rinbosari, t.f.d.;
2. Muxamedova B.F. — Davolash ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, t.f.d.;
3. Xadjibayev F.A. — Shoshilinch xirurgiya ilmiy-klinik bo'lim rahbari, prof.;
4. Sharipova V.X. – Anesteziologiya va reanimatologiya Ilmiy klinik bo'limi rahbari, prof.;
5. Valiyev E.Yu. — Shoshilinch travmatologiya Ilmiy klinik bo'lim rahbari, t.f.n.;
6. Maxkamov M.K. — Qon-tomir neyroxirurgiyasi, kardioxirurgiya va transplantologiya majmuasi bo'yicha bosh shifokor o'rinbosari, t.f.d.;
7. Valiyev E.Yu. — Travmatologiya ilmiy-klinik bo'lim rahbari, prof.
8. Alibekova M.B. – 1-shoshilinch pediatriya bo'limi shifokori

Tayanch doktorantura (PhD)ga talabgorning ilmiy tadqiqot ishi taqdimotini baholash jadvali

№	Baholash mezonlari va ko'rsatkichi	Ball berishning aniq sharti	Eng yuqori ball	Qo'yilgan ball	Bajarilgan shart
1		Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va o'rganilganlik darajasi	20		
1.1	Ilmiy muammoni belgilash	Har bir shart uchun 1 balldan: tadqiq etiladigan aniq ilmiy muammo yoki masala ifodalangan; muammo qaysi obyekt, jarayon yoki holat bilan bog'liqligi ko'rsatilgan; mavjud holatdagi hal etilmagan jihat yoki cheklavlar belgilangan; qo'shimcha ilmiy tadqiqot o'tkazish zarurati asoslangan.	4		
1.2	Mavzuning dolzarbligini asoslash	Har bir shart uchun 1 balldan: dolzarblikni tasdiqlovchi aniq ilmiy, statistik, tahliliy yoki boshqa dalillar keltirilgan; keltirilgan ma'lumotning manbasi ko'rsatilgan; dalil tadqiqot muammosi bilan bevosita bog'langan; keltirilgan dalillar asosida tadqiqotni amalga oshirish ahamiyati ochib berilgan.	4		
1.3	Mavzuning o'rganilganlik darajasini tahlil qilish	Har bir shart uchun 1 balldan: mavzuga daxldor mahalliy tadqiqotlar natijalari keltirilgan; xorijiy tadqiqotlar natijalari keltirilgan; tahlilga jalb qilingan manbalar tadqiqot mavzusiga bevosita daxldor; mavjud tadqiqotlarning asosiy natija yoki yondashuvlari ajratilgan; mavjud natija yoki yondashuvlar o'zaro taqqoslangan; tahlil natijasida umumlashtiruvchi ilmiy xulosa shakllantirilgan.	6		
1.4	Etarlicha o'rganilmagan yoki hal etilmagan masalani belgilash	Har bir shart uchun 1 balldan: etarlicha o'rganilmagan aniq masala belgilangan; mazkur masala mavjud ilmiy manbalar tahlildan kelib chiqqan; uning asosiy ilmiy muammo bilan bog'liqligi ko'rsatilgan; aynan qaysi jihat etarlicha o'rganilmagan ifodalangan; masala tayanch doktorantura tadqiqoti doirasida o'rganish mumkin bo'lgan	6		

Doktorantura (DSc)ga talabgorning ilmiy tadqiqot ishi taqdimotini baholash jadvali

Talabgorning F.I.O.:

Ilmiy ixtisoslik:

Tadqiqot mavzusi:

Komissiya a'zosi:

No	ko'rsatkichi	Bali berishning aniq sharti	yuqori ball	n ball	agan shart
1	Avvalgi ilmiy natijalar va ularning rejalashtirilayotgan tadqiqot bilan bog'liqligi		10		
1.1	Avvalgi asosiy ilmiy natijalar	Har bir shart uchun 1 balldan: Tayanch doktorantura dissertatsiyasi yoki keyingi ilmiy faoliyat doirasida olingan asosiy natijalar ko'rsatilgan; rejalashtirilayotgan doktorantura tadqiqotiga bevosita daxldor natijalar ajratilgan; natijalar oddiy nashrlar ro'yxati emas, ilmiy mazmunda bayon etilgan.	3		
1.2	Avvalgi natijalar orqali hal etilgan ilmiy masalalar	Har bir shart uchun 1 balldan: avvalgi tadqiqotlarda hal etilgan asosiy ilmiy masalalar belgilangan; ularning ilmiy yoki amaliy ahamiyati ifodalangan.	2		
1.3	YAngi ilmiy muammoga o'tish	Har bir shart uchun 1 balldan: avvalgi ishlardan keyin hal etilishi talab etiladigan yangi ilmiy masala belgilangan; mazkur masala avvalgi natijalardan mantiqan kelib chiqqan; rejalashtirilayotgan doktorantura tadqiqoti avvalgi tadqiqotlarning takrori emasligi ko'rsatilgan.	3		
1.4	YAngi tadqiqot uchun ilmiy asos va tajriba	Har bir shart uchun 1 balldan: talabgorning rejalashtirilayotgan mavzu bo'yicha tegishli ilmiy tajribasi ko'rsatilgan; mazkur tajribaning doktorantura tadqiqotini amalga oshirishdagi ahamiyati asoslangan.	2		
2	Ilmiy muammoning zamonaviy holati va hal etilmagan jihatlari		15		
2.1	Tadqiqot yo'nalishining zamonaviy ilmiy holati	Har bir shart uchun 1 balldan: sohadagi asosiy zamonaviy ilmiy yo'nalishlar ko'rsatilgan; mavzuga bevosita daxldor muhim ilmiy natijalar ajratilgan; mavjud ilmiy holat umumlashtirilgan.	3		
2.2	Mahalliy va xorijiy tadqiqotlarni tahlil qilish	Har bir shart uchun 1 balldan: mahalliy tadqiqotlar natijalari tahlil qilingan; xorijiy tadqiqotlar natijalari tahlil qilingan; asosiy yondashuv yoki natijalar o'zaro taqqoslangan; tahlil natijasida talabgorning umumlashtiruvchi ilmiy xulosasi shakllantirilgan.	4		

2.3	Mavjud echim va yondashuvlarning etarli bo'lmagan jihatlarini aniqlash	Har bir shart uchun 1 balldan: mavjud echim yoki yondashuvning etarli bo'lmagan jihati ko'rsatilgan; ushbu holat ilmiy manba yoki natija bilan asoslangan; uning hal etilayotgan ilmiy muammoga ta'siri tushuntirilgan; qo'shimcha tadqiqot talab etadigan jihat ajratilgan.	4	
2.4	Doktorantura tadqiqotining asosiy ilmiy muammosini belgilash	Har bir shart uchun 1 balldan: asosiy ilmiy muammo aniq ifodalangan; muammo o'tkazilgan tahlildan mantiqan kelib chiqqan; muammo avvalgi tadqiqot natijalarini takrorlamaydi va yangi ilmiy echimni talab etadi; mazkur muammoni hal etishning fan rivoji uchun ahamiyati asoslangan.	4	
3	Tadqiqot kontseptsiyasi, maqsadi va asosiy vazifalari		12	
3.1	Tadqiqot kontseptsiyasi	Har bir shart uchun 1 balldan: ilmiy muammoni hal etishga qaratilgan asosiy kontseptsiya ifodalangan; kontseptsiya avvalgi natijalar va zamonaviy ilmiy holatdan kelib chiqqan; taklif etilayotgan asosiy ilmiy yondashuv ko'rsatilgan; kontseptsiyaning ilmiy muammoni hal etishdagi o'rni asoslangan.	4	
3.2	Tadqiqot maqsadi	Har bir shart uchun 1 balldan: bitta aniq va umumlashtiruvchi maqsad belgilangan; maqsad asosiy ilmiy muammoga muvofiq; maqsad kutilayotgan ilmiy natija yo'nalishini ifodalaydi.	3	
3.3	Asosiy ilmiy vazifalar	Har bir shart uchun 1 balldan: vazifalar maqsadga erishishga qaratilgan; vazifalar ilmiy mazmunga ega va bir-birini takrorlamaydi; vazifalar mantiqiy ketma-ketlikda shakllantirilgan.	3	
3.4	Kontseptsiya, maqsad va vazifalarning o'zaro bog'liqligi	Har bir shart uchun 1 balldan: kontseptsiya → maqsad → vazifalar o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud; vazifalarning bajarilishi kutilayotgan yangi ilmiy natijalarga olib kelishi mantiqan asoslangan.	2	
4	Tadqiqot obyekti, predmeti va qamrovi		6	
4.1	Tadqiqot obyekti	Har bir shart uchun 1 balldan: tadqiqot obyekti aniq belgilangan; tadqiqot obyekti ilmiy muammo va maqsadga muvofiq.	2	
4.2	Tadqiqot predmeti	Har bir shart uchun 1 balldan: predmet obyektning bevosita tadqiq etiladigan jihatini ifodalaydi; predmet obyektni takrorlamaydi va tadqiqot maqsadiga muvofiq.	2	
4.3	Tadqiqot qamrovi va muvofiqligi	Har bir shart uchun 1 balldan:	2	

		tadqiqot xususiyatiga ko'ra hududiy, vaqt, ma'lumotlar, obyektlar, eksperiment yoki boshqa tegishli qamrovi belgilangan; obyekt, predmet va qamrov tadqiqot vazifalarini bajarish uchun etarli va o'zaro muvofiq.			
5	Tadqiqot metodologiyasi va usullari		16		
5.1	Metodologik yondashuv	Har bir shart uchun 1 ball dan: tadqiqotning umumiy metodologik yondashuvi aniq ko'rsatilgan; yondashuv ilmiy muammoga muvofiq; yondashuv maqsad va vazifalarga muvofiq; uni tanlash sababi ilmiy jihatdan asoslangan.	4		
5.2	Asosiy ilmiy usullarni tanlash	Har bir shart uchun 1 ball dan: asosiy ilmiy usullar ko'rsatilgan; usullar obyekt va predmetga muvofiq; usullar belgilangan vazifalarni hal etish imkonini beradi; usullarni tanlash mantiq'i asoslangan.	4		
5.3	Vazifa – usul – natija bog'liqligi	Har bir shart uchun 1 ball dan: asosiy vazifalar tegishli usullar bilan bog'langan; har bir usul orqali qanday ma'lumot yoki natija olinishi ko'rsatilgan;	3		

Talabgorlarning murojaatlarini ko'rib chiqish uchun apellyatsiya komissiyasi tarkibi:

1. Anvarov X.E.
2. Inamov O.Y.
3. Ibragimova M.E.

Ilmiy tadqiqot taqdimoti namunasi

- **1-slayd: Titul varaq**
 - Dissertasiya mavzusi (o'zbek, rus yoki ingliz tilida)
 - Talaba/izlanuvchining F.I.O.
 - Ixtisoslik shifri va nomi
 - Ilmiy rahbar/maslahatchi (ilmiy darajasi va unvoni ko'rsatilgan holda)
- **2-slayd: Muammoning dolzarbligi (Rationale & Urgency)**
 - Sohadagi mavjud muammo va yechilmagan masalalar
 - Nima uchun bu tadqiqot aynan hozir zarurligi (so'nggi 3–5 yillik statistik/ilmiy ma'lumotlar bilan)
- **3-slayd: Tadqiqot maqsadi va vazifalari**
 - **Maqsad:** Tadqiqot orqali erishiladigan asosiy natija (1 ta aniq jumla)
 - **Vazifalar:** Maqsadga erishish uchun bajarilishi kerak bo'lgan 3–4 ta izchil bosqich
- **4-slayd: Tadqiqot obyekti va predmeti**
 - **Obyekt:** Tadqiq qilinayotgan jarayon, bemorlar guruhi, laboratoriya modeli yoki tizim
 - **Predmet:** Mazkur obyektning aynan qaysi xususiyati yoki mexanizmi o'rganilishi
- **5-slayd: Tadqiqot metodologiyasi va usullari**
 - Qo'llaniladigan klinik, laboratoriya, instrumental va statistik usullar (masalan: *laborator testlar, RKI, Mini-CEX, SPSS/Python va h.k.*)
 - Tanlanma hajmi va guruhlarni shakllantirish mezonlari
- **6-slayd: Ilmiy yangiligi (Scientific Novelty)**
 - Aynan sizning ishingizda ilk bor taklif etilayotgan yoki aniqlanadigan yangi natija, usul yoki algoritim
- **7-slayd: Amaliy ahamiyati va kutilayotgan natijalar**
 - Natijalar amaliyotga (tibbiyotga, ta'limga, ishlab chiqarishga) qanday joriy etilishi
 - Ijtimoiy yoki iqtisodiy samaradorligi
- **8-slayd: Tadqiqotning kalendar rejasi (Gantt Chart)**
 - 3 yillik tahsil davriga mo'ljallangan bosqichma-bosqich ish rejasi (ma'lumot yig'ish, tahlil, maqolalar chop etish, yozish va himoya)
- **9-slayd: Muallifning ilmiy zamini**
 - Mavzu bo'yicha e'lon qilingan maqola va tezislar ro'yxati, patentlar yoki mualliflik guvohnomalari (mavjud bo'lsa)
- **10-slayd: Yakuniy xulosa va e'tibor uchun rahmat**

2. Mazmun va texnik talablar

- **Til:** Taqdimot va chiqish qabul komissiyasi/Ilmiy kengash tomonidan belgilangan tilda (davlat tili, rus yoki ingliz tilida) olib boriladi.
- **Dizayn va format:**
 - Fon sodda, och ranglarda va akademik uslubda bo'lishi kerak.

- Matn hajmi minimumda ushlanadi — asosan **sxemalar, jadvallar, grafiklar va blok-sxemalardan** foydalanish tavsiya etiladi.
- Shrift o'lchami: sarlavhalar uchun 28–32 pt, matn uchun 18–24 pt.
- **Bibliografiya va iqtiboslar:** Slaydlarda keltirilgan statistika yoki tadqiqot faktlari ostida manba ko'rsatilishi zarur (masalan: *Smith et al., 2025*).

3. Komissiya tomonidan baholash mezonlari

Sizning taqdimotingiz va himoyangiz quyidagi mezonlar bo'yicha baholanadi:

1. **Mavzuning mustaqilligi va puxta ishlab chiqilgani:** Izlanuvchi o'z sohasidagi muammoni qanchalik chuqur tushunishi.
2. **Metodologik asoslanganlik:** Tanlangan tadqiqot usullari qo'yilgan vazifalarga mosligi.

Akademik nutq va savol-javob: Taqdimotni vaqt reglamentiga rioya qilgan holda yetkazib berish va komissiya a'zolarining savollariga aniq, ilmiy asoslangan javob berish.